



**OLIV TA'LIM TEXNIKA YO'NALISHLARIDA O'ZBEK TILI  
O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDAGI  
TAJRIBA-SINOV ISHLARI SAMARADORLIGI**

**D.Shermatova**

NamMQI, Katta o'qituvchi.

*tel:+998945060858)*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11112248>

Millat tili va muloqotning zaruriy jihatlaridan yana biri uning kishini faollikka undashidir. Har qanday milliy tilda olib boriladigan ta'lim jarayonlaridagi to'g'ri va samimiy muloqot faollikni vujudga keltiradi.

Zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitish natijasida pedagogik tafakkur tamoyillari o'ziga xos ravishda rivojlandi, uni ta'limga tatbiq etilishi natijasida ta'lim maqsadlari ham tubdan o'zgardi: bilim berish, zarur ko'nikma va malakalarni takomillashtirib borish bilan birga, oliy ta'lim talabalarida, bo'lg'usi oliy ma'lumotli mutaxassis sifatida, madaniylashgan nutqini rivojlantirishga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. O'ziga xos lingvistik va pedagogik talabning me'yorlari ishlab chiqildi. Talabning muloqot qila olish, undan zavqlanish xususiyatini tarbiyalash va shu asosda ularning estetik didini o'stirish, mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikka erishish, so'z va undagi qudratni, sehrini his qilishga erishish shular qatoridadir. Zero, ona tili ilmi va shu tildagi me'yoriy muloqot asosida bo'lg'usi texnik mutaxassis til tafakkuri va nutqiy komillik kompetensiyasini rivojlantirish muhim pedagogik ishlardan ekanligi tabiiydir.

Ma'lumki, ona tilimiz bo'lgan o'zbek tilida muloqotning bir qancha vazifa va funksiyalari bor. Ulardan doimiy ko'p qo'llanadigani o'zaro suhbatdir. Bu jarayon o'zaro hol-ahvol so'rashishdan boshlanib, muloqotning yuqori darajasigacha boradi, albatta, muloqotda asosan milliylikning hukmron bo'lishi har bir tilning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. O'zbeklarda oddiygina samimiy salom-alikdan tortib, to xayrlashgunga qadar bo'lgan jarayonlarda ham bunday holatni yaqqol ko'rish mumkin. Bo'lg'usi texnik yo'nalishdagi mutaxassislarning madaniy muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondirishda ulardan har bir so'zdagi san'atni, nutqiy muloqot odoblarini puxta bilishlari talab etiladi.

Tadqiqotimiz mavzusi bo'lg'usi texnik mutaxassislarning oliy ma'lumotli jamiyat vakili sifatida, o'z faoliyatlari davomida kasbiy va ijtimoiy faoliyatlari qurshovidagi kishilar bilan muloqot qilish madaniyati, muomala san'atining talabalarni doimiy faollikka undovchi o'qitish texnikasi hisoblanadi. Ona tili - o'zbek tilini oliy ta'limda o'qitish orqali milliy tilda muloqot qila olish





muhim ahamiyatli bo'lgani bois, tajribalarimizda talabalarning til bo'yicha bilim, malaka, ko'nikmaga qo'yilgan talablar va ularga asoslanib, tajribalar o'tkazildi.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda talabalarning til boyligi, nutqiy muloqot kompetensiyasini takomillashtirish va yanada rivojlantirishning dastlabki darajasini diagnostik tahlil qilishda oliy ta'lim texnik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etishdi. Oliy ta'limda ham jamiyatning ijtimoiy jarayonlarda muhim hisoblangan ona tili o'qitishda til va madaniy muloqot qila olish jarayonlari ahamiyatli bo'lganligi bois, biz ham o'z tajribamizda talabalarning bilim, malaka, ko'nikmalariga qo'yilgan talablar va ularga asoslanib tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim texnika yo'nalishlarida ona tili fanini o'qitishga yo'naltirilgan pedagogik tizimni tajriba-sinovdan o'tkazishda talabalarning muloqot mahoratini ifoda etuvchi maxsus metodika qo'llanildi.

Talabalar bilan savol-javoblar o'tkazilib, ona tili bo'lgan o'zbek tili hamda o'z sohalariga aloqador lisoniy leksik birliklarni o'rganishlari va o'rganganlari haqidagi mustaqil fikr-mulohazalari aniqlandi. Ma'lumki, oliy ta'lim talabasida yoshga nisbatan fiziologik hamda psixologik jarayonlar o'ziga xos tarzda kechadi. Shuning uchun ham o'qituvchi har qanday jarayonlarda, dars mashg'ulotlaridagi so'zlashish-muloqot jarayonlarida talabalardagi o'ziga xoslikni his qila bilashi, shunga mos ravishda o'ziga so'zlasha olish san'ati, muloqot yo'llarini singdirish lozim bo'ladi. Bunday holatlar esa, o'z-o'zidan milliy tilni o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zaruriyatini taqozo etadi.

Xotira - bu tajribamizga aloqador har qanday ma'lumotni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bilan bog'liq murakkab jarayondir. Xotira har qanday tajribamizga aloqador ma'lumotlarning ongimizdagi aksidir. Inson xotirasini yaxshi bo'lishi, ya'ni his-kechinmalarimiz, ko'rgan-kechirganlarimizning mazmuni to'laroq miyamizda saqlanishi quyidagi omillarga:

- esda saqlab qolish bilan bog'liq harakatlarning yakunlanganlik darajasiga;
- shaxsning o'zi shug'ullanayotgan ishga nechog'lik qiziqish bildirayotganligi va shu ishga moyilligiga;
- shaxsning bevosita faoliyat mazmuni va ahamiyatiga munosabatining qandayligiga;
- shaxsning ayni paytdagi kayfiyatiga;
- irodaviy kuchi va intilishlariga bog'liq[1].





Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari orqali:

1. Muloqot qilish, albatta, nutq madaniyati bilan bog'liq jarayon ekanligi uchun oliy ta'limda ona tili fanini o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilg'or o'qitish usullariga asoslangan metodik ta'minot tizimini markazlashgan holda o'rganildi.

2. O'zbek tili fanini o'qitishdagi zamonaviy texnologiyalar o'rganildi, talabalarga ona tili fanini o'qitish, ularning til va har sohada muloqot qila olish darajasini aniqlash bo'yicha ulardagi bilim olishga ehtiyoj va talab aniqlandi.

3. Tadqiqot davomida yaratilgan zamonaviy metod va usullar asosida talabalar kreativlik, motivatsiyalar asosida ona tilini o'zlashtirish darajalari o'rganildi.

4. Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash maqsadida yaratilgan turli texnik yo'nalish talabalarida zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalangan holda tajriba-sinov natijalari va ularning matematik-statistik tahlili ko'rsatib berildi.

Talabalarning do'stlari, kursdoshlari, guruhdoshlari, atrofidagi kishilar bilan muloqot munosabatlari va aloqaning dolzarbligi axborotlar tig'izlashgan hozirgi sharoitda oddiygina so'zlashishni emas, balki professional, bilimdonlik, so'zamollik asosidagi muloqotni talab qilinishi amaliy jihatdan o'rganildi.

Tajriba-sinovning bir nechta ilmiy nazariy tashkiliy va metodik, metodologik shartlariga muvofiq ravishda an'anaviy, interaktiv, zamonaviy-kreativ ona tili o'qitish bo'yicha dars mashg'ulotlari, muloqotni tashkil qilishdagi kelib chiqqan qiyinchiliklarni tahlil qilish bo'yicha alohida mashg'ulotlar, onlayn-suhbatlarni o'z ichiga olgan, bir-biriga bog'liq bo'lgan o'quv mashg'ulotlari va darsdan tashqari ishlar ona tili darslarini amaliy jihatdan mukammallashtirish hamda takomillashtirishga xizmat qildi.

Shunday qilib, guruhlar tizimi, jumladan, talabalarning fanni o'zlashtirish darajalari va qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan vazifalarni hal etish hamda bir nechta texnik yo'nalish guruhlarini qamrab olgan dars turlari: amaliy mashg'ulotlar, innovatsion metod va texnologiyalar asosida o'quv topshiriqlari, ularni bajarish omillari tahlil etildi. Guruhlarning har biri uchun o'ziga xos metodikasi, uning usullari, talabalarning til, nutq kompetensiyalarini takomillashtirish va uning yo'llarini o'rganish shakllari, o'qitish usul hamda metodlari aniqlandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Каримова В.М. ва бошқ. Психология. Дарслик. – Тошкент: ТДИУ нашриёти, 2006. – Б.148.





2. Тўхлиев Б., ва бошқ. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 6.

3. Shermatova D.Ya. Давлат тилига эътибор ва унинг олий таълим техника йўналишларида ўқитилиши / Наманган давлат университети илмий ахборотномаси журнали. 2021 йил. Махсус сон. 633-637 бетлар.

4. Shermatova D.Ya. Техника йўналиш талабаларида тил компетенциясини шакллантириш хусусида айрим мулоҳазалар / Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў № 6/6 - 2022 жыл. 43-46 betlar.

5. Shermatova D.Ya. Oliy ta'lim texnika yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning o'zbek tilidagi muloqot madaniyatini rivojlantirish / Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti FAN va JAMIYAT Ilmiy-uslubiy jurnali, №1- 2023 жыл. 101-103 betlar.

